

“TARBIYA” DARSЛИГИДАГИ ЭРТАKLAR ASOSIDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH

Ergasheva Durdona Safarali qizi,

FarDU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi,

dyergasheva@list.ru

Annotatsiya: Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik hissi o‘zbek millatining qadriyatlaridan chuqur o‘rin egallagandir. Har bir harakatimiz, amalga oshgan, oshmagan niyatlarimiz, kurtak yozayotgan orzu-umidlarimiz, turmushdani achchiq-chuchuk tashvishlarimiz har kuni, har soniya Vatan taqdiri bilan bog‘lanadi. Ana shunday ma’suliyatl ishni bolalarga kichik maktab yoshidanoq singdirish lozim. Maktablarda Tarbiya fanining o‘tilishi esa bolalarda bir qator ijobjiy hislatlarni shakllantirishga ko‘maklashmoqda. Ushbu maqolada 4-sinf “Tarbiya” darsligida berilgan Vatan va millatlar haqidagi ertak va hikoyalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Vatan madhi, topshiriqlar, boylik, davlat arbobi, yodgorliklar, urfatodlar;

Abstract: A sense of Homeland, a sense of patriotism has taken a deep place in the values of the Uzbek nation. Each of our actions, our realized, unsurpassed intentions, dreams and hopes that we are budding, our bitter-fresh worries about marriage are connected with the fate of the motherland every day, every second. Such responsible work should be instilled in children from a small school age. And the transition of Educational Science in schools contributes to the formation of a number of positive traits in children. This article analyzes fairy tales and stories about the motherland and nations, which are given in the textbook “Tarbiya” 4th grade.

Keywords: praise of the motherland, assignments, wealth, statesman, monuments, traditions;

Vatanparvarlik tuyg‘usi kishining o‘z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o‘tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san’atiga bo‘lgan otashin muhabbatini ifodalaydi. Qadim zamonlardan buyon xalqimizning o‘z Vataniga muhabbat qo‘sishlarda, ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt-saodati uchun kurashga undaydi. Vatanparvarlik – tug‘ma instinct emas, shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda bu tuyg‘uni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilgan.

4-sinf “Tarbiya” darsligida berilgan Vatan to‘g‘risidagi ertaklar bolalarga “bolalarcha misollar” bilan yoritib berilgan, ya’ni har bir ertak zamirida Vatanga muhabbat so‘zi yashiringan. E’tibor qaratgan bo‘lsangiz, boshlang‘ich sinflarda

o'qitiladigan ko'plab darsliklar Vatan haqida ertak, she'r, hikoya yoki bo'lmasa biror bir matn, rasm bilan boshlanadi. Bu esa o'quvchilarga kichik maktab yoshidanoq Vatanga bo'lgan muhabbatini o'stirish hamda oila, yurt oldidagi burchlarini eslatishga yordam beradi.

Darslikning "Vatan madhi" mavzusidagi dastlabki hikoyada keltirilishicha, Ulug'bek oilasi bilan xizmat safariga jo'naydi va 4-sinfni avstraliyalik do'stlari bilan davom ettiradi. Mamlakat unga xush kelgan bo'lsa-da, o'zi tug'ilib o'sgan joyni qattiq sog'inadi. Shu o'rinda dono xalqimizning "Bulbul chamanni sevar, odam - Vatanni" degan so'zлari yodimizga tushadi. Bu sog'inch azobi faqat Ulug'bekkagina tanish emasdi, uning ota-onasi ham yurtini juda sog'ingan edi. "Vatan bizsiz kunini ko'raverishi mumkin. Vatan yuzlab va minglab odamlarsiz ham yashaydi. Ammo biz yer yuzining qayerida bo'lishimizdan qat'i nazar, tug'ilib o'sgan yurtimizni sog'inamiz", - deydi Ulug'bekning otasi.

Bu qisqagina hikoya orqali bolada Vatanni sevish, qadrlash, har qarich tuprog'ini ko'zga surtish kabi ijobiy xislatlar shakllanadi. Dars davomida turlicha topshiriqlar berish dars samaradorligini yanada oshiradi. Misol:

Jadvaldagagi chalkashtirib berilgan maqollarni tartibga solib o'qing.

Vatani borning	o'z qadrini bilmas
Vatan qadrini bilmagan	baxti bor
Ona yurtim -	o'lan to'shagim
O'z uyim -	oltin beshigim

Vatan - har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilarini ota-onasi, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Vatan haqidagi boshlang'ich bilimlar bolalarda ularning hayotiy tajribalari zaminida, tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi muayyan tasavvurlari asosida hosil bo'ladi. Ona Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbida hech qachon o'zgarmaydi. Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Bu aziz tuyg'uni ona allasi parvarish etadi, voyaga yetkazadi. Inson o'z Vatanida kamol topadi, qadrlanadi, hayot maktabini o'taydi, farovonlik va baxt-saodatga erishadi.

Qo'shimcha o'qish uchun berilgan dehqon va uning yeri haqidagi ertakni olaylik. U qisqa, lo'nda va bola tushunadigan tilda go'zal talqin qilingan. Berilgan ertakni quyidagi hikmatlar bilan bog'lashimiz mumkin:

- Imkoniyat doimo o'z yurtingda, kindik qoning to'kilgan makonda bo'ladi;
- Shukur qilsak, halol mehnat qilsak, har birimiz, aslida, olmos to'la zamin ustida yashayotganimizni anglab yetamiz. Qanoatli bo'lish - eng katta boylik.

Vatan so'zi hamisha ona so'zi bilan yonma yon keladi. Bu shunchaki sifat, odatiy majoz emas. Ona Vatan timsolida biz jamiyatimiz tabiatini, mehribonlik va muvofiqlik poydevoriga qurilgan tuzumimiz hislatini ko'ramiz. O'zbekistonning mustaqilligi tufayli Vatan tarixi moddiy va ma'naviy me'rosga aylandi. Okean ortidagi mamlakatni

birinchi bo‘lib kashf etgan Abu Rayhon Beruniy, ne-ne sarkardalar tig‘ kuchi bilan ololmagan joylarni qalam kuchi bilan zabt etgan Alisher Navoiy, tibbiyat ilmining asoschisi Abu Ali Ibn Sino, buyuk matematik al Xorazmiy, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahon ahliga mashhur bo‘lgan ma’rifatli o‘zbek millatining qalbi, aqli, xulqi, bilimi, tili, sarkardorligi bilan hurmat topgan yurtdoshlarimizni butun dunyo biladi, ularga ham Vatan ona o‘rnida ona, ota o‘rnida ota bo‘lgan. Shuning uchun ham ona zamin ona Vatan, ona yer kabi tushunchalar hayotimizga, ongimizga singib ketgan.

O‘zbekiston istiqlolini mustahkamlashda va uni rivojlantirishda ma’naviy sog‘lom avlodni voyaga yetkazish va ularda vatanparvarlik haqidagi milliy urf-odatlarimizni shakllantirish zarur. Zero, xalqimizning qadim qadimdan amal qilib kelayotgan vatan va vatanparvarlik tuyg‘ulari ma’naviyatimizning asosidir. Hadisi shariflarda “Vatanni sevmoq imondandir”, deb bejiz aytilmagan. Vatanni sevish – vatanparvar bo‘lish demakdir. Vatan ma’naviyat va madaniyat, fan, adabiyot va san’at o‘chog‘i hamda bulog‘idir. Inson uchun Vatandan yuksakroq boylik yo‘q.

Kelajakda buyuk davlat darajasiga ko‘tarilish maqsadi yo‘lida intilayotgan O‘zbekiston Vatani – xalq hayoti, turmush tarzi, urf-odatlari, ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirmoqda. Vatanparvarlik – bu ona zaminga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, e’zozlash. Uning ravnaqiga har bir fuqaroning o‘z hissasini qo‘shishga erishish demakdir.

4-sinf “Tarbiya” darsligida “O‘zbekiston - ko‘p millatli davlat” mavzusida uchta matn keltirilgan. Birinchi matnda ota-onaning ustozga ko‘rsatgan e’tiboridan bolalarda mehr-shavqat tuyg‘usi shakllansa, rus millatiga mansub insonlarning yurtimizda ilmiy faoliyat olib borganini eshitgan bolada xalqimizning qanchalik bag‘rikengligini tushinishi mumkin.

Ota-onam ularni so‘nggi yo‘lga kuzatishga bosh bo‘lishibdi. Kechqurun juda xafa bo‘lib qaytgan onajonimdan: “Nega xafa bo‘lasiz? Ular bizning qarindoshimiz emas-ku, ularning odatlari ham, millati ham boshqa-ku?” - deb so‘radim. Bir zum indamay turgan dadajonim: “Bolam, biz insoniylik burchimizni bajardik”, - deb javob berdilar.

Matn yuzasidan “Sizning mahallangizda qaysi millat vakillari istiqomat qilishadi?, “Bolam, biz insoniylik burchimizni bajardik” degan gapni siz qanday tushundingiz?” kabi savollar bilan bolani keng fikrlashga va o‘z fikrlarini erkin bayon etishga o‘zgartiladi.

Ikkinci matnda esa Vatanga sodiqlik, urf-odatlar, an’analarni qadrash haqida so‘z yuritiladi. Koreys millatiga mansub bolaning: “Dadam har doim: “Biz O‘zbekistonda yashaymiz, bu yurtning urf-odatlarini hurmat qilishimiz kerak”, - deb uqtiradilar” degan gapi orqali o‘quvchi boshqa millat vakillarini birday ko‘rish, hurmatda bo‘lish kerakligini tushunadi. Axir, boshqa millatlar ham biz kabi inson-ku!

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, har yili 16-noyabrdan O'zbekistonda "Xalqaro bag'rikenglik kuni" nishonlanadi. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ular qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, tatar, ukrain singari turli millat vakillari hisoblanishadi. Barchamiz "O'zbekiston - umumiylar uyimiz" shiori ostida bitta mamlakatda ahil, inoq, totuv bo'lib yashamoqdamiz.

Keyingi ertakda esa Islombekning oilasi va Vera xola misolida mehr-oqibat timsoli yashiringan. O'zbek xalqida an'anaga aylanib ulgurgan turli bayramlarda, yangi qo'shni ko'chib kelganda yoki mahalladagi keksa onaxonlarni yo'qlaganda osh beriladi. Islombekning onasi ham mahallada yashovchi keksa kampirga doim osh olib kirardi, rus kampir ham qish kunlari mazzali quymoqlari bilan qo'shnilariga bo'lishardi. Bu an'analar kattalarga mehr ulashish vositasi bo'lsa, kichik yoshli bolalarga katta ibrat na'munasidir.

Vatanparvarlik o'zi nima?

Vatanparvarlik - bu ona Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishga erishish.

Vatanparvarlik - bu Vatanimiz xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o'z xissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lish.

Vatanparvarlik – bu o'zbek xalqining Qadim qadimlardan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko'xna zaminning tarixini bilishga erishish.

Vatanparvarlik – bu o'zbek xalqining madaniy me'roslari hisoblangan madaniyat, san'at, me'morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash va ularning tarixi hamda bugungi kundagi axamiyatni bilish.

Vatanparvarlik - bu o'z millatiga, ona yeriga, imoniga sodiqlikdir.

Vatanparvarlik - bu sog'lom kuchlar, sog'lom tafakkur egalari, dini, imoni pokizalikdir.

Vatanparvarlik - bu Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash. Vatan taraqqiyoti, milliy obro'siga hissa qo'shish, foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuxrati va manfaatini o'ylash, insonparvar bo'lish demakdir.

Vatanparvarlik - bu har bir kishining o'z xalqiga bo'lgan fidoyiliklari va xalq dardini o'z dardlaridek o'yab yashash, O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishiga hissa qo'shishdir.

Vatanparvarlik - shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham bolalarda vatanparvarlik tuyg'usi go'daklikdan boshlab shakllantirilsa, u so'nggi nafasgacha boqiy bo'ladi. Shuning uchun har bir insonda yoshligidanoq quyidagilarni mujassamlantirish maqsadga muvofiqdir.

1. Mustaqillik his-tuyg'usini shakllantirish va unga amal qilish.
2. O'zbek milliy g'ururiga sodiqlik.

3. Ko‘p millatli O‘zbekiston xalqiga do‘stlik munosabatlari.
4. Jamiyatni insonparvarlashtirishda o‘z xissasini qo‘shish.
5. Har bir yerda tartib-intizomli bo‘lish.

Demak, ona yurtga munosib farzand bo‘lish uchun namunali axloq-odob bilan o‘rnak ko‘rsatish, Vatan uchun jon olib, jon berganlarni hamisha yodda tutish, el-yurt manfaati yo‘lida mahnatdan qochmaslik tamoyillariga amal qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. -T.:Universitet. 2000 y
2. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiysi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti www.president.uz.
3. Ergasheva D. BARKAMOL AVLODNI MA’NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLANG ‘ICH TA’LIMNING O ‘RNI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 139-141.
4. <https://fayllar.org/> 1-vatanparvarlik-tarbiyasini-berishning-pedagogik-asoslari.html
5. U.Toshtemirov, X.Sopoxonov. «Axlokiy kadriyatlar», «Tafakkur», 1993 yil
6. Turg‘unboyev B., Ergasheva D. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH-BOSHLANG ‘ICH SINFO ‘QUVCHILARI O ‘QUV-BILUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 3. – №. 1 Part 1. – C. 162-164.
7. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLANG ‘ICH TA’LIM FANLARINI O ‘QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME’ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 16-20.